


VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022- yilning yanvar-sentabrda 6 572 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2021- yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga kamdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2 926 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 44,5 %), sanoatda 1 428 ta (21,7 %), boshqa turdagi xizmatlar 482 ta (7,3 %), qurilishda 408 ta (6,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 408 ta (6,2 %), tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 47 562 ta (o‘tgan yilning shu davrida 41 073 ta)ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 44 882 tani (jamiga nisbatan 91,5 %) tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar *birklikda*

	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar- sentabr	Farqi (+;-)
Farg‘ona viloyati	6 827	6 572	-255
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	879	934	55
Qo‘qon	743	621	-122
Quvasoy	245	253	8
Marg‘ilon	504	406	-98
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	371	341	-30
Qo‘shtepa	246	270	24
Bag‘dod	335	289	-46
Buvayda	351	338	-13
Beshariq	290	337	47
Quva	367	291	-76
Uchko‘prik	339	279	-60
Rishton	297	299	2
So‘x	146	183	37
Toshloq	362	402	40
O‘zbekiston	329	331	2
Farg‘ona	294	266	-28
Dang‘ara	325	353	28
Furqat	209	198	-11
Yozyovon	195	181	-14

2022- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi *2022- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan, %da*




2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Farg‘ona shahrida - 14,2 %, Qo‘qon shahrida - 9,4 %, Marg‘ilon shahrida - 6,2%, Toshloq tumanida-6,1%, Dang‘ara tumanida-5,4 %, Oltiariq tumanida 5,2 %, Buvayda tumanida-5,1 %, Beshariq tumanida -5,1 %, O‘zbekiston tumanida - 5,0%ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

birklikda


	2021- yil yanvar- sentabr	2022- yil yanvar- sentabr	Farqi (+;-)
Jami	6 827	6 572	-255
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	295	408	113
Sanoat	1 688	1 428	-260
Qurilish	479	408	-71
Savdo	2 960	2 926	-34
Tashish va saqlash	187	212	25
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	420	440	20
Axborot va aloqa	212	129	-83
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	155	139	-16
Boshqa faoliyat turlari	431	482	51

2022- yilning yanvar-sentabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 2 926 ta, shuningdek :




2022- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 11,4 birlikni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabrda Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1000 aholiga, birlikda).



2022- yilning yanvar-sentabr oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida 24,4 birlik, Quvasoy shahrida 16,1 birlik, Qo‘qon shahrida 20,5 birlik, Marg‘ilon shahrida 17,3 birlik, So‘x tumanida 13,3 birlik, Dang‘ara tumanida 12,4 birlik Toshloq tumanida 10,1 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 6,4 birlikka teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabr oyida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1 000 aholiga, birlikda).



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko‘payish dinamikasi, %da

¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabr oyida 70,9%).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.




2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2021- yil	2022- yil	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	41 073	44 882	3 809
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	6 827	6 572	-255
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YaHM	%	70,9	69,2	-1,7
Sanoat	%	44,7	41,2	-3,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	97,0	-0,8
Investitsiya	%	64,7	64,8	0,1
Qurilish	%	88,4	85,8	-2,6
Chakana savdo	%	91,9	88,6	-3,3
Xizmatlar	%	68,6	64,0	-4,6
Yuk tashish	%	91,5	89,2	-2,3
Yuk aylanmasi	%	93,8	93,7	-0,1
Yo'lovchi tashish	%	96,1	96,4	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,5	97,6	0,1
Eksport	%	51,8	49,4	-2,4
Import	%	75,4	71,5	-3,9

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(yanvar-sentabr, %da)



Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari


(2022-yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan, % da)

Hududlar	Sanoat		Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		Investitsiyalar		Qurilish	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
Viloyat	44,7	41,2	97,8	97,0	64,7	64,8	88,4	85,8
<i>shaharlar:</i>								
Farg'ona	18,2	21,1	97,8	86,3	45,3	31,0	93,0	85,5
Qo'qon	40,1	30,6	99,7	96,6	62,7	78,2	81,6	84,3
Quvasoy	31,3	35,4	95,9	99,8	58,8	82,9	81,8	77,6
Marg'ilon	100,0	96,5	99,9	97,3	85,3	88,7	57,5	66,8
<i>tumanlar:</i>								
Oltiariq	63,9	45,5	99,3	97,2	84,7	86,7	99,5	99,7
Qo'shtepa	47,4	28,6	98,9	99,5	60,4	93,6	91,0	99,7
Bag'dod	81,1	71,6	97,8	97,8	73,8	86,0	98,2	94,5
Buvayda	90,1	85,5	99,7	100,0	76,1	77,1	99,6	99,7
Beshariq	100,0	100,0	98,1	96,9	94,8	85,9	87,4	96,7
Quva	32,6	25,3	99,6	98,5	59,5	62,1	99,7	99,3
Uchko'prik	84,2	84,4	99,6	97,4	88,4	96,5	99,7	99,6
Rishton	64,1	56,1	99,5	99,9	36,1	41,7	99,1	99,0
So'x	100,0	100,0	91,6	96,3	22,0	33,1	99,0	89,2
Toshloq	13,0	11,9	99,4	98,6	69,2	72,8	99,6	99,7
O'zbekiston	57,9	49,7	99,2	99,6	80,8	77,3	99,4	99,5
Farg'ona	33,6	25,0	86,9	97,7	47,3	38,8	99,4	79,9
Dang'ara	87,3	67,8	95,8	87,7	88,8	61,8	95,5	54,7
Furqat	100,0	95,5	99,7	97,8	87,0	67,7	99,6	99,5
Yozyovon	100,0	100,0	99,4	98,9	62,5	52,7	81,0	76,3

davomi


	Xizmatlar		Savdo		Eksport	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
Viloyat	68,6	64,0	91,9	88,6	51,7	49,4
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	58,4	51,9	82,0	74,3	39,6	45,9
Qo‘qon	71,5	65,9	93,0	87,0	24,5	13,3
Quvasoy	72,3	68,6	77,2	86,8	82,6	72,7
Marg‘ilon	74,5	69,6	98,0	98,7	98,5	94,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	85,5	79,5	93,6	93,4	96,4	96,0
Qo‘shtepa	70,5	65,4	98,4	99,2	21,6	9,8
Bag‘dod	74,3	72,2	94,5	97,7	100,0	100,0
Buvayda	63,0	60,3	96,0	95,7	69,6	72,0
Beshariq	71,8	68,0	96,2	97,0	100,0	100,0
Quva	58,4	60,8	95,7	97,4	58,7	52,0
Uchko‘prik	82,9	79,5	80,8	61,7	86,3	98,8
Rishton	68,6	71,2	96,4	97,3	70,4	62,5
So‘x	86,1	83,3	98,8	98,9	100,0	100,0
Toshloq	72,0	68,6	95,9	98,6	11,0	12,1
O‘zbekiston	71,9	67,5	95,4	97,3	80,4	60,0
Farg‘ona	75,4	71,9	98,2	98,4	60,7	58,4
Dang‘ara	67,8	64,6	96,8	97,2	63,9	43,6
Furqat	79,9	75,6	97,2	98,2	100,0	42,7
Yozyovon	55,9	52,9	95,6	97,0	100,0	100,0

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 316,0 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 49,4 %ni tashkil etdi.






**Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)
eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bag'dod tumani – 100,0 %, Beshariq tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Uchko'prik tumani – 98,8 % Oltiariq – 96,0 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumani – 9,8 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 6,9 mln. AQSh dollari yoki umumiy importning 71,5 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)
importining jami importdagi ulushi, %da




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 %, Yozyovon tumanida - 100,0 %, Dang'ara tumanida - 99,9 % Marg'ilon shahrida - 99,2 %, Beshariq tumanida - 97,1 %, O'zbekiston tumanida - 96,9 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida - 23,0 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari 9 003,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (1 399,7 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (1 224,4 mlrd. so'm) Farg'ona shahar (1 087,5 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (899,1 mlrd. so'm) va Beshariq (595,2 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (74,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 41,2 %ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Beshariq tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahari (96,5 %), Furqat tumani (95,5 %) Buvayda tumani (85,5 %), va Uchko'prik tumani (84,4 %), hissasiga tegishli. Toshloq tumanida (11,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 15 456,8 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 88,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,9 %ni tashkil qildi.




**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



■ hajm, mlrd. so'm ● o'sish sur'ati, %da




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri 3 195,7 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (3 097,5 mlrd.so'm), Farg'ona shahri (2 590,3 mlrd.so'm), Quva tumani (703,4 mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (621,2 mlrd.so'm) Buvayda tumani (502,7 mlrd.so'm), va Oltiariq tumani (493,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2022- yil yanvar - sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 323,6 mlrd.so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 85,8 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 107,5 %ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (1 428,1 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (557,5 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (392,7 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (303,8 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (246,3 mlrd. so'm), Toshloq tumani (277,6 mlrd. so'm) hamda Oltiariq (232,5 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 10 162,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 64,0 %ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 106,8%ga o'sish kuzatildi.






2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2 469,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1 856,3 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (1 219,2 mlrd. so'm), Uchko'prik (479,2 mlrd. so'm), Quva (386,2 mlrd. so'm), Dang'ara (356,2 mlrd. so'm) va Bag'dod (345,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 89,2 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,7%ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati 107,3 %ni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,4 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar - sentabr oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,6 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,5 % ni tashkil qildi.

